



**“ZAMONAVIY YOSHLARNI MA’RIFATGA BOSHLASH YO’LIDA
JADIDCHILAR VA ULAR TUTGAN YO’L”**

Ilmiy rahbar: Burxanova Sabo Tulanovna,
TDIU Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsent

Axmadv Boysunjon
1 bosqich BHA-50/24 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma’rifatparvar ziyoli Mahmudxo’ja Behbudiyning “Padarkush” nomli dramasi asosida jamiyatda ilm, tarbiya va ma’naviyatning o’rni keng yoritilgan. “Padarkush” atamasi orqali insonning ma’naviy tubanlikka tushishi va bu holatning oqibatlarini ko’rsatib berilgan. Maqolada Behbudiyning ma’rifatparvarlik faoliyati, uning xalqni uyg’otish yo’lida qilgan ishlari, xususan maktablar ochib, yoshlarni ilmga undagani haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, asarda boylikni barcha narsadan ustun qo’yish va bu noto’g’ri qarashning halokatli oqibatlarini ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: Padarkush, Mahmudxo’ja Behbudi, jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, ilmsizlik, giyohvandlik, ijtimoiy tarmoqlar, ota-ona mas’uliyati, ta’lim islohotlari, Prezidentimiz farmonlari, zamonaviy maktablar, milliy uyg’onish, kitobxonlik.

**THE INDEPENDENTS AND THE PATH THEY TAKE TOWARDS
ENLIGHTENING MODERN YOUTH**

Abstract

This article explores the role of education, upbringing, and morality in society through the drama *"Padarkush"* by the enlightened intellectual Mahmudkhoja Behbudi. The term *"Padarkush"*, meaning "patricide", is used to highlight the consequences of a person's moral degradation. The article discusses Behbudi's efforts in awakening the nation through educational reform, particularly by opening



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

schools and encouraging youth to seek knowledge. It also emphasizes the destructive outcome of prioritizing wealth over intellect and morality, as illustrated in the play.

Keywords: *Padarkush*, Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism movement, enlightenment, youth upbringing, morality, ignorance, drug addiction, social media, parental responsibility, education reforms, presidential decrees, modern schools, national awakening, reading culture.

Padarkush. Ushbu soʻz kimningdur nazlida juda oddiy soʻz ammo siz ushbu soʻzning maʼnosini anglab yetsangiz soʻzga boʻlgan qarashingiz tubdan oʻzgaradi. Keling dastlab soʻzning maʼnosini koʻrib chiqamiz. *Padarkush* soʻzi “ongsiz”, “manqurt” maʼnolarida ham keladi. *Padarkush* atamasi otasining qotili yaʼni yaralishiga sabab boʻlgan odamning qotili boʻlgan tom manodagi manqurt insonlar uchun ishlatiladi. Hozirgi kunda biz yoshlar orasida hatto bu soʻzning maʼnosini tushunmaydiganlar ham topiladi. Bu juda ham achinarli. Buning asosiy sababi albatta ilimsizlikka borib taqaladi.

Oʻzbek adabiyotida oʻchmas iz qoldirgan maʼrifatparvar ajdodimiz Mahmudxoʻja Behbudiyning (1875-1919) ham oʻz davrida asosiy maqsadlaridan biri bu maʼrifatparvar yoshlarni tarbiyalash edi. Behbudiyning bu maqsadi yoʻlida koʻplab maktablar ochdi va yosh avlodni savodxon qilishga harakat qildi.

Behbudiyning Turkistonda jadidchilik asoschisi boʻlgan I. Gaspirinskiyning (1851-1914) “Tarjumon” gazetasining doimiy muxarriri boʻlgan. Mahmudxoʻja 200dan ortiq oʻzbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifidir. Uning “*Padarkush*” pyesasiga haqida gapirib oʻtishni lozim topdim. Dastlab ushbu pyesada SSSRga qarshi xalqni uygʻotish uchun undovlar bolmasa ham pyesa sahnalashtirilishiga yoʻl qoʻyishmagan. Ammo drama ilk bor 1912-yilda “Turon” gazetasida chop etildi. Bir yil oʻtib esa kitob shaklida nashrdan chiqdi. Drammadan asosiy koʻzlangan maqsad bu yosh avlodni maʼnaviyatli va dunyo qarashini keng qilishga undash edi. Bir gap bilan maqsad maʼrifatparvar xalqni yaratish.

Pyesada oʻsha davrdagi xato fikrlar juda ajoyib tarzda yoritilgan. Ushbu xato fikrlardan biri shuki “boylik hamma narsani hal qiladi”. Drammada gavdalantirilgan “boy” obrazi ushbu fikrda edi. Shuning uchun ham u “Domullo” va “Ziyolining”



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

bergan maslahatlarini nazarpisand qilmadi.Ular “boy”ga o’g’lini ziyoli va ma’rifatparvar qilib tarbiyalash kerakligini uqtirishga chiranishgan edilar.Ushbu qaltis nazarpisandlik uning o’limiga sabab bo’lishi inson ma’rifatparvar bo’lishi kerakligiga yana bir turtki deb aytolamiz.Ushbu drama ya’ni o’z jigarbandi bo’lgan “ziyoli” o’g’lining o’z uyiga o’g’irlikka o’zi kabi do’stlari bilan tushgani va voqea joyida “boy”ni o’ldirilgani haqida.Drama shuning uchun ham “Padarkush” deb nomlangan desak mubolag’a bo’lmaydi.O’quvchi buning hammasi ilmsizlikdan ekanligini bir qarashda tushunib olishi unchalik qiyin emas o’ylashimcha.

Afsuslar bo’lsin ushbu nodir asar soxibi buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiy 44 yoshida yovuz kuchlar qurboni bo’ldi. Mustaqillik yillariga kelib adibning xotirasini abdiylashtirish yo’lida ko’plab tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Unga ko’ra muxtaram prezidentimiz ba’zi qarorlarni qabul qildi.Ularning bazilari quyidagilar:

- 1.Mahmudxo’ja tavalludining 150 yilligini nishonlash bo’yicha tashkiliy qo’mita ilovaga muvofiq tartibda tuzilsin
2. ”Mahmudxo’ja Behbudiy saboqlari” mavzusida ta’lim dargohlarida insholar tanlovi o’tkazilsin
- 3.Taniqli olimlar va adiblar bilan Mahmudxo’ja Behbudiy hayotiga asoslangan davra suxbatlari tashkil etilsin.

Bular ko’zda tutilganlarning bir nechtasi edi.Biz ushbu ro’yxatni uzoq davom ettirishimiz mumkin albatta.Ammo ushbu haraktatlarning ildizi bir joyga ya’ni biz yoshlarga kelib taqaladi.Ya’ni hozirgi paytga kelib asosiy e’tibor O’zbekiston yoshlarini marifatparvar qilib tarbiyalashdir. Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham “agar mendan “nima sizni qiynaydi?” deb so’razangiz,bolalarimizning ta’lim,tarbiyasi deb javob beraman” degan edi.Ushbu fikrlardan yurtimiz kelajagi biz yoshlar ekanimiz va ushbu kelajakka manaviyatli yoshlar kerak ekanligini tushunib olishimiz zarurdir.

Bu yo’lda biz uchun yurtimiz va muxtaram prezidentimiz tomonidan ko’plab qulayliklar yaratilmoqda va turli xildagi qarorlar qabul qilinmoqda.Jumladan maktabgacha ta’lim soxasida ham bir qancha qarorlar qabul qilindi.Pedagoglar va ularning malakasini oshirishda qabul qilingan qarorlarni ham takidlab o’tish lozim.Keling ularni ko’zdan kechiramiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

2019-yil 26-noyabrida PQ-4537-son qaroriga ko'ra zamonaviy maktablarni tashkil etish tog'risida; 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi farmoniga ko'ra o'qituvhi kasbiy nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmuolarini zamon talabi asosida moslashtirish haqida; Prezidentimizning 2024-yil 2-iyuldagi PF-98-sonli Farmoniga ko'ra, Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida islohotlar olib borilmoqda. Bu qarorlardan asosiy ko'zlangan maqsad albatta ajdodlarimiz qilgan ishni ya'ni ma'naviy yetuk xalqni tarbiyalash uchundir. Yuqorida ta'kidlangandek agarda insonda yetarlicha dunyo qarash va fikrlash qobiliyati bo'lmasa "Padarkush" asaridagi kabi mash'um holatlarga tushib qolish hech gap emas.

Hozirgi paytga kelib ham asar qahramoniga o'xshash bolalar yo'q emas. Ba'zi bir o'spirinlarda hattoki turli qaramliklar ko'payib bormoqda. Jumladan giyohvand moddalar, psixotrop tabletkalar va hokazo. Bularning hammasi ushbu mavzular doirasida davra suxbatlari ya'ni oilaviy suxbatlar olib borilmaganligida deb o'ylayman. Bu esa albatta asardagi kabi bee'tiborlikdir. Albatta har bir yosh asosiy tarbiyani oiladan oladi. Agarda oilada takidlangan muhit hukm sursa yosh avlod ma'naviy yetuk bo'lishi shubha ostida qoladi.

Yana bir tur qaramlik mavjud, buni qaramlik deyish to'g'rimi yoki yo'q bilmayman. Ushbu "qaramlik" ijtimoiy tarmoqlardir. Hozirgi paytga kelib ijtimoiy tarmoqlar tezligi ancha yaxshilangan va turli xildagi kontentlar yaratilmoqda. Ushbu kontentlar ichida yosh bola ongi uchun tasir ko'rsatuvchi omillar mavjud bo'lishi mumkin. Kontentlarni farqlash ular ustida fikr yuritish va xulosa chiqarish lozim. Ammo etiborsizlik tufayli yoshlar turli xildagi salbiy g'oyalar ortidan ergashmoqdalar. Yoshlar orasida kitob o'qish kabi tushunchalar kamayib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri keraksiz kontentlar va ularga bo'lgan yoshlarning qiziqishida deyishimiz mumkin. Ushbu "qaramlik" ortidan yoshlar hatto ajdodlar va ularning bajargan amallarini o'rganishga erinchoqlik qilishmoqda. Ushbu vaziyat albatta inson ma'naviyatini orqaga yani jarlikka yetaklaydi deyishimiz mumkin.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). PQ-4537-son qarori: Zamonaviy maktablarni tashkil etish to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). PF-165-son farmoni: 2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). PF-98-son farmoni: Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish.
4. Behbudiy, M. (1912). *Padarkush*. Turon gazetasi, Toshkent.
5. G'afurov, B. (2020). *Mahmudxo'ja Behbudiy: Hayoti va merosi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Karimov, I. (1997). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Gaspirali, I. (1883–1914). *Tarjimon* gazetasi maqolalari. Bahchisaroy.
8. Qodirov, A. (2015). *Jadidchilik harakati va ma'rifat*. Samarqand: Ilm ziyo.
9. Qahhorova, S. (2021). “Zamonaviy o'quvchi va ijtimoiy tarmoqlar”. *Ta'lim va tarbiya*, №3, 22–26-betlar.
10. Normurodov, D. (2018). *Jadidlar va ularning pedagogik qarashlari*. Toshkent: Fan.